



THE PROCEDURE FOR COLLECTING TAXES AND DUTIES IN THE CITY OF KARSHI DURING THE LAST PERIOD OF THE EXISTENCE OF THE BUKHARA EMIRATE (1900–1920)

Eshtemirov Jasurbek Suyunkulovich

Director of the Karshi Regional Branch of the Academy of Public
Policy and Management under the President of the Republic of
Uzbekistan, Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD),
Associate Professor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21127130>

ARTICLE INFO

Received: 20th February 2026

Accepted: 27th February 2026

Online: 28th February 2026

KEYWORDS

Emirate, beyship, city,
population, center, position,
tax system, state,
administration, political
contradictions, invasion,
discontent.

ABSTRACT

At the beginning of the 20th century, the city of Karshi was one of the important administrative and economic centers of the Bukhara Emirate. The city was the center of the Karshi bey, which was governed by a bek appointed by the emir. Karshi was an important strategic city located in the southern part of the emirate. The city served as the administrative center of the bekstvo, from where the surrounding villages and districts were governed. Tax collection, maintenance of order and administration of justice in the bey were carried out on the basis of the laws of the emirate.

ПОРЯДОК СБОРА НАЛОГОВ И ПОДАТЕЙ В ГОРОДЕ КАРШИ В ПОСЛЕДНИЙ ПЕРИОД СУЩЕСТВОВАНИЯ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА (1900–1920 ГГ.)

Эштемиров Жасурбек Суюнкулович

Директор Каршинского регионального филиала
Академии Государственной политики и управления
при Президенте Республики Узбекистан, доктор
философии по историческим наукам (PhD), доцент
<https://doi.org/10.5281/zenodo.21127130>

ARTICLE INFO

Received: 20th February 2026

Accepted: 27th February 2026

Online: 28th February 2026

KEYWORDS

Эмират, бекство, город,
население, центр,
положение, налоговая
система, государство,
администрация,
политические
противоречия, вторжение,
недовольство.

ABSTRACT

В начале XX века город Карши был одним из важных административных и экономических центров Бухарского эмирата. Город являлся центром Каршинского бекства, которым управлял бек, назначаемый эмиром. Карши был важным стратегическим городом, расположенным в южной части эмирата. Город служил административным центром бекства, откуда осуществлялось управление окрестными селениями и районами. Сбор налогов, поддержание порядка и отправление правосудия в бекстве велись на основе законов эмирата.



BUXORO AMIRLIGINING SO'NGGI DAVRIDA QARSHI SHAHRIDA SOLIQ VA YIG'IMLARNI YIG'ISH TARTIBI (1900-1920 YY.)

Eshtemirov Jasurbek Suyunkulovich

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi
akademiyasining Qarshi mintaqaviy bo'limi direktori, tarix fanlari doktori, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21127130>

ARTICLE INFO

Received: 20th February 2026

Accepted: 27th February 2026

Online: 28th February 2026

KEYWORDS

Amirlik, beklik, shahar, aholi, markaz, ahvol, soliq tizimi, davlat, boshqaruv, siyosiy qarama-qarshilik, bosqin, norozilik.

ABSTRACT

XX asr boshlarida Qarshi shahri Buxoro amirligi tarkibidagi yirik ma'muriy va iqtisodiy markazlardan biri hisoblangan. Shahar Qarshi bekligi markazi bo'lib, uni amir tomonidan tayinlangan bek boshqargan. Qarshi amirlikning janubiy qismida joylashgan muhim strategik shahar hisoblangan. Shahar ma'muriy jihatdan beklik markazi bo'lib, atrofidagi qishloqlar va tumanlar shu yerdan boshqarilgan. Beklikda soliq yig'ish, tartibni saqlash va sud ishlari amirlik qonunlari asosida amalga oshirilgan.

Introduction (Кирис):

1900-1920 yillar davomida Buxoro amirligida Mang'itlar sulolasi hukmronlik qilgan. Bu davrda amirlikni Amir Abdulahad hamda Amir Olimxonlar boshqargan. Bu hukmdorlar davrida Buxoro amiri huquqiy jihatdan mustaqil hukmdor sanalsa ham, haqiqatda rus podshosiga qaram bo'lgan. Amir va uning amaldorlariga qarshi xalq harakatlari podsho Rossiyasi qo'shinlari yordamida bostirilar edi. Amir Abdulahad rus podshosining general-ad'yutanti hisoblangan. Uning davrida rus ma'murlari amirlikda katta imtiyozlarga ega bo'lgan. Amirlik yerlaridan o'tgan temir yo'l bo'ylariga rus aholisi keltirilib joylashtirildi. Buxoro Afg'oniston chegarasining muhofazasi bilan ham rus qo'shinlari shug'ullangan. Buxoro amirligining podsho Rossiyasiga tobeligi amir Olimxon zamonida (1910-1920) yanada ortdi. Amirlikda yettita rus xususiy bankining shu'basi ish olib borgan. Birinchi jahon urushi boshlanishi

bilan amirlik aholisining ahvoli yanada og'irlashdi. Xuddi shu davrga kelib jadidlik harakati asosida yosh buxoroliklar partiyasi faoliyati kuchaydi. 1917-yil fevral inqilobi munosabati bilan bu partiya amirlikni podsho Rossiyasi bo'yinturug'idan qutqazish, ba'zi islohotlar o'tkazish ishiga kirishdi. Yosh buxoroliklar rus bolsheviklari bilan hamkorlikda 1918-yil martida amir hukumatini ag'darishga urindilar. Ammo bu harakat muvaffaqiyatsizlikka uchradi. 1920-yil 2-sentyabrda Buxoro bosqini natijasida amirlik tugatildi.

Relevance and current state of the topic

(Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati):

O'zbekiston, jumladan Qarshi shahri hayotida XX asrda birinchi choragi siyosiy qarama-qarshiliklarning keskinlashuvi, Rossiya hukumatining amirlik ichki ishlariga aralashuvining ko'chayishi, iqtisodiy xayotning izdan chiqishi, ishlab chiqarish usullari va



vositalarining nihoyatda qoloqligi, halq zimmasiga har qachongidan ham og'ir to'lov va majburiyatlarning yuklanganligi, omma moddiy turmushidagi nochorliklar kabi omillar tufayli halq noroziligi va qo'zg'olonlarining avj olgan davri bo'lib tarixga kirdi.

Experimental part (research):

Eksperimental qism (tadqiqot):

XX asr boshlarida Buxoro amirligi 27 ta beklikga bo'lingan edi. Shulardan biri Qarshi bekligi edi[1]. Qarshi bekligi vohada joylashgan geografik o'rni, iqlimi, demografiyasi, iqtisodiy rivojlanganligi tufayli Buxoro amirligining eng ko'p daromad keltiradigan shaharlaridan biri edi.

XX asr boshlarida Buxoro amirlari Qarshi shahrining iqtisodiy hayotiga, ayniqsa savdo sohasini rivojlantirishga yetarli darajada e'tibor bermagan. Aksincha, Buxoro amirligi hukumati Qarshi shahrining mavqeini pasaytirish va asosiy iqtisodiy manfaatni markazda jamlash maqsadida Afg'oniston hamda Hindiston kabi mamlakatlardan kelayotgan savdo karvonlarini Qarshi orqali emas, balki to'g'ridan-to'g'ri Buxoro shahriga yo'naltirish choralari ko'rgan. Buxoroda karvonlar maxsus nazoratdan o'tkazilgan va tovarlarning bir qismigina savdo qilish uchun Qarshiga yuborilgan.

Buxoro amiri Abdul Ahad davrida mamlakatning iqtisodiy axvoli qanday darajada bo'lganligini soliqlarning turlari kupligi ham ishorat etadi. Dehqon XIX asrning oxirlari XX asr boshlarida 40 turdagi soliqlarni to'lashga majbur etilgan. Soliqlar mundarijasi shunday edi: Xiroj, zakot, aminona, taxtajoy puli, tarozu puli, dallol puli, mirobona, bokiya

puli, chigir puli, labaki puli, juzya (amirlikda yashovchi yahudiylardan olingan g'ayridinlik solig'i), avorizot, qora cherik, farsax puli, yaksara yoki qo'sh puli, osiyo puli, hovli puli, objuvoz puli, xos puli, ojas puli, sanjit puli, chorbog puli, chub puli, alaf puli, tarbuz puli, kema puli, muhrona, xizmatona, kafsana puli, vasiqa puli, hukmona, xatmona, taloqona, shodiyona (bola tug'ilganda), nikohona[2]. Bu yerda zikr etilgan oliq soliqlarni to'liq deb bo'lmaydi.

Rossiya imperyasining O'rta Osiyoni istilo qilishi, xususan, Buxoro amirligining vassalga aylantirilishi o'lka iqtisodiy hayotiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Butun Turkiston bozorlarida bo'lgani kabi, Qarshi bozorlarida ham mahalliy hunarmandlar tayyorlagan ko'pgina mahsulotlarni Rossiya tovarlari siqib chiqara boshladi.

Buxoro amirligi markaziy hokimiyatining zaifligi, aniq boshqaruv tizimining ishlab chiqilmaganligi, joylardagi ma'muriy boshliqlarning markazdan hech bir haq olmay (maoshsiz) o'z hududlarini boshqarayotganligi, aholini ro'yhatga olish ishining deyarli yo'lga qo'yilmaganligi, soliqlar yig'ishda aniq tartiblarning belgilanmaganligi bois, amirlikning shahar va qishloqlarida mansabdor shaxslar o'z bilganlaricha ish yuritib, xohlaganlaricha xalqning zimmasiga og'ir soliq va to'lovlarni yuklaganlar. Mehnatkash ommaning mansabdor shaxslar ustidan arz qilib, amirga shikoyat yozishlari ko'p hollarda javobsiz qoldirilgan. Shikoyat yuzasidan beklarga yuborilgan amir vakillari katta pora evaziga omma arizasida keltirilgan talablarni yo'qqa chiqarishga harakat



qilgan. Shu tariqa yillar davomida aholi og'ir turmush sharoitida yashashda davom etgan.

O'sha voqealarni guvohi bo'lgan rus olimi D. N. Logofet shunday yozadi: "Unutmaslik kerakki, yirik Osiyo qit'asining ushbu burchagi hozirgi kunda dunyodagi eng huquqsiz joy bo'lib, bu yerda Rossiyaning buyuk nomidan kishini junbushga keltiruvchi shunday ishlar qilinadiki, buning oqibatida 3 millionli aholi qashshoqlik va halok bo'lishga mahkum etilgan." [3].

Buxoro amirligi hududida XX asr boshlarida ellikka yaqin soliq va to'lovlar mavjud edi. Shahar aholisi ko'pincha bog' puli – mevali bog'lardan, gul puli – qurilish ashyolari va o'tindan, barg puli – ipakchilikdan olinadigan soliqlarni to'lagan[4].

Bozorlarda savdogarlar tagjoy pulini to'laganlar[5]. Bundan tashqari shaharlarda mirshablar uchun ham olinadigan soliq mavjud bo'lib, bu "qorachilik" deb atalgan. Shaharliklar yana "zakot, maktab puli, hovli puli, nikohxona puli, avarizotlar (favqulodda holatlarda olinadigan harbiy soliqlar), jiz'ya (yahudiylardan olinadigan soliq), kotibxona (kotib foydasiga olinadigan soliq) kabi soliqlarni ham to'laganlar.

Buxoro amirligining chekka hududlarida joylashgan beklklarda 1904 yilga qadar ba'zi soliqlar miqdori aniq tartib asosida olinmadi. Shu yildan boshlab 40 ta qo'y yoki echkidan 1 ta qo'y yoki echki, 5 ta yuk tashuvchi tuya, hisobidan 1 ta qo'y hisobida zakot olinadigan bo'ldi[6]. Buxoroga olib kelingan bir vagon guruchdan 60 tanga, dondan 45, arpadan 35 tanga zakot olingan.

Bozorlardagi oldi-sotdildardan soliq yig'ish bilan amin shug'ullangan. Bir botmon paxtadan 5 so'm, jundan 7 so'm, qorako'l terisi bahosining 2 foizi, choyni 10 foizi, ot uchun bir tanga va 2 ta o'q zakot to'langan[7].

Arxiv manbalari shundan dalolat beradiki, Qarshi shahrida 1913 yilning ob-havosi dehqonchilik qilish uchun noqulay keladi. Shu yilning 10 noyabrida Qarshi begi o'z huzuriga barcha volost boshqaruvchilarini chaqirib, xalqdan soliq undirishni qat'iy talab qildi[8]. Shuningdek, volost boshqaruvchilari belgilangan soliqning faqat yarminigina yig'ishga erisha olganlar. Qurg'oqchilik oqibatida ayrim volost boshliqlari zo'ravonlik usullariga og'ir iqtisodiy ahvolga tushib qolgan aholidan soliq undirish jarayonida murojaat qilgan. Bu holat esa keng omma noroziligining kuchayishiga olib kelgan. Xalq noroziligini yumshatish va vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida amir hukumati Qarshi bekligi tarkibidagi besh nafar volost boshqaruvchisini zo'ravonlikda ayblab, qamoq jazosiga hukm qilgan, ulardan biri esa darra bilan jazolangan[9].

Noqulay ob-havo sharoiti aholi kayfiyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. 1913 yilning qish oylarida qor va yomg'ir yog'maganligi sababli, kelasi yoz ham qurg'oqchil va hosilsiz bo'lishi haqidagi taxminlar xalqning norozi va tushkun kayfiyatini yanada yomonlashtirdi. Natijada Qarshi bekligi aholisidan Buxoro amiriga ko'plab ariza va shikoyatlar yuborildi. Amir bu holatga chora ko'rish yuzasidan muayyan majburiyatlar belgiladi.

Masalan, amirning saroy amaldorlari beklklarga tez-tez borib



taftish o'tkaza boshladilar. Qarshi shahar veterinariya shifokori Saltikov 1913 yilning dekabrda o'z qo'l ostidagilarga quyidagi mazmunda bildirishnoma yuboradi: "1913 yilning dekabr oyi boshlarida Qarshi shahriga Karmana shahridan 6 ta amir amaldorlari keldi". [10]. Ular aholi shikoyatlarini ko'rib chiqadi. Qarshi boshining o'g'li Hasan Mirkarimbek ug'lining zo'ravonligi ustidan norozilik arizalar ko'o edi. Bekning o'g'li juda ochko'zligi va ta'magirligi bilan xalq orasida tanilgan. Amir amaldorlarining ba'zilar shaxsan o'zlari beklik hududini aylanib taftish o'tkazib chiqdilar. Boshqalari esa o'z mulozimlarini qishloqlarga yubordi.

Saltikovning qayd etishicha, Qarshida bir hafta davomida bo'lgan amaldorlar, bek tomonidan ko'plab sovg'a-salomlar bilan siylangan holda qaytib ketganlar. Ular jo'nab ketgach, aholidan soliq undirish yanada kuchaytirilgan. Asossiz va majburiy soliqlarni to'lash uchun aholi Qarshi bozoriga ko'plab shohli qoramollarni sotuvga chiqarishga majbur bo'lgan [11]. Oqibatda shaharda mollarning narxi juda tushib ketdi. Misol uchun, shu yili Qarshi bozorida sog'in sigir buzog'i bilan 23-24 so'mga sotildi. [12].

Shaharda bek qozi bilan til biriktirib, ko'proq soliq olish yo'llarini izlar edi. Ular bozorlarga o'z amaldorlari va jarchilarini yuborib, mahsulotlarga yangi narxlar belgilaganligini e'lon qiladi: bir botmon bug'doy narxi 75 tanga (11 so'm 25 tiyin), bir botmon arpa 60 tanga (9 so'm), ushbu narxlar bo'yicha soliqlar to'lash lozimligi ta'kidlanadi. Bozorda don mahsulotlarining narxi esa pastroq edi. [13]. Masalan, bir botmon bug'doy narxi 68 tanga (10 so'm 20 tiyin), bir

botmon arpa 48 tanga (7 so'm 20 tiyin) edi. [14]. Bek va uning amaldorlarining soliqlarni ko'proq yig'ish maqsadida bozorda g'alla narxini sun'iy ravishda oshirishi ommaning qattiq noroziligiga sabab bo'ldi. Chunki har bir botmon bug'doy 8-12 tangaga qimmat sotilsa, shuncha soliq miqdori oshirilardi. Bundan tashqari, soliqlar mahsulot bilan emas, pul shaklida olindi. [15]. Holbuki, 1913 yil noyabr oyida Qarshi bozorida don mahsulotlarining narxi ancha arzon bo'lib, bir botmon g'alla 8-9 so'm, bir botmon arpa 5-6 so'm edi. [16].

XX asr arafasida Qarshi viloyati amir xo'jasiga har yili 1 mln 800 ming tanga yoki 270 ming so'm yuborib turdi [17]. Turkiston general-gubernatori kavaleriya generali A.B. Samsonov (1909 – 1913) imperatorga yo'llagan ma'ruzanomasida shunday deydi: "Hozirgi kunda rus hukumati panohida Buxoro xalqi avvallarga qaraganda ham hech ko'rilmagan darajada qashshoqlikka tushib qoldi... Amir esa rus nayzalariga suyangan holda o'z mamlakati idorasi ishlariga juda loqayd qaraydi... Natijada Buxoro xalqining keng ommasi o'rtasida amirga va uni qo'llab-quvvatlovchi ruslarga qarshi g'azab alanga olib bormoqda."

Buxoro amiri XX asr boshlarida hokimiyatni mustahkamlashda asosan Rossiya hukumati va qo'shinining madadiga tayandi. Norozilik chiqishlari amirlikning barcha shahar va qishloqlarida doimiy bo'lib turdi. Amir qo'shnlari ko'pchilik hollarda ularni bostira olmay, rus harbiy qismlaridan yordam so'radi. Masalan, 1910 va 1914 yillardagi amirlik hududidagi g'alayonlar rus harbiy kuchlari yordamida bostirildi [18]. 1914 yilda Qarshi



shahridagi chiqishlar ham rus askarlari yordamida bostiriladi.

Analysis of the obtained results:

Olingan natijalarni tahlil qilish:

Buxoro amirligida siyosiy boshqaruvning zaifligi va tarqoqligi o'lkada o'z hukmronligini to'la o'rnatishga harakat qilayotgan Rossiya imperatori va uning hukumati uchun bu ayni muddao bo'ldi. Bunday holat Rossiya hukumatiga amirlikni o'z siyosati doirasida ushlab turishiga imkon berdi.

1909 yil mart oyida Buxoro amirligining Hisor, Kulob, Qarshi va Shahrisabz bekliklarida Navro'z bayrami arafasida juda katta norozilik harakatlari bo'lib o'tdi[19]. Bu norozilik harakatlarini kelib chiqishiga bir qator omillar sabab bo'ldi:

birinchidan; xalq ommasi zimmasiga tushayotgan og'ir to'lov va majburiyatlar, tartibsiz soliqlar uning turmush sharoitini og'irlashtirib, hayotini qashshoqlashtirdi.

ikkinchidan; aholi turli tabaqalari o'z yashash sharoitlaridan noroziligi ortib borib, tez-tez isyonlar, qo'zg'olonlar bo'lib o'tadi.

Qarshida 1917 yil mart oyining oxirida dehqonlarning norozilik harakati yanada kuchayadi. [20]. Bunga sabab Birinchi jahon urushi yillarida o'lkadagi iqtisodiy hayot nihoyatda og'irlashdi hamda oziq-ovqat, don mahsulotlari, chorva mollarining Rossiyaga tashib ketilishi tufayli mahalliy aholining og'ir turmushi yanada nochorlashdi.

Qarshida dehqonlar va hunarmandlarning norozilik chiqishi 1919 yilning bahorida bo'lib o'tdi. Isyonchilar Qarshi begining qarorgohiga

hujum qilib, oddiy xalqdan navkarlikka olishni to'xtatishini talab qildi. Ular soliqlarni to'lashdan bosh tortdi. [21]. 1909 yili Qarshi begi Tog'aybek qo'zg'olonni shaharning temir yo'l shohbekati atrofida istiqomat qiluvchi aholining ham norozilik harakatlarini bostirib, isyonchilardan ayovsiz o'ch oladi. [22].

Conclusion:

Xulosa:

XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi boshqa shaharlar qatori Qarshi shahrida ham bir qadar ijobiy siljish bilan birga, ko'p sohalar faoliyatining izdan chiqqanligi kuzatildi. Jumladan, bek va amaldorlar o'z bilganlaricha ish yuritib, hududdagi ijtimoiy, iqtisodiy ahvol to'g'risida deyarli hech kimga hisob bermaganlar. Amirlikning bekliklar va undagi shaharlar ustidan hukmronligi soliq yig'ish, zarur hollarda askar to'plashdan nariga o'tmadi. Amirlik xazinasidan shahar qurilishi, obodonlashtirish, maishiy qulayliklarni yaratish, ta'lim tizimini yo'lga qo'yish, aholi salomatligini muxofaza qilish ishlari uchun hech bir mablag' ajratilmadi. Mahalliy boshqaruv tizimidagi bu tartibsizliklar davlat hokimiyatidagi mansabdor shaxslarni qiziqdirmadi. Bu kabi salbiy holatlar noxush oqibatlarni keltirib chiqardi. Qarshi shahrida ham amirlikning boshqa hududlari qatori tez-tez norozilik harakatlari bo'lib o'tdi. Shuningdek, shahar oddiy aholisining turmush darajasi nihoyatda pastligi, asossiz to'lov va majburiyatlarning ko'paytirilishi, aholi qashshoqlashuv jarayonining tez sur'atlar bilan o'sib borishi tufayli norozilik harakatlari, isyonlar avj oldi.



References:

1. O'zbekiston Milliy arxivi (O'z MA), 126-fond, 1-ro'yxat, 51-ish, 42 – 44-varaqlar.
2. Тухтаметов Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX - начале XX в., - Toshkent: Fan, 1966, – В.74.
3. Логофет Д. Н., Страна бесправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб, 1912. – С. 150.
4. O'z MA, 26-fond, 1-ro'yxat, 1001-ish, 20 – 21-varaqlar.
5. O'z MA, 26-fond, 1-ro'yxat, 1279-ish, 1 – 4-varaqlar.
6. Туркестанские ведомости, 1906. – №6.
7. Соснин В. Столица кочевая: Наутака – Нахшаб – Карши. – Карши: Насаф, 1996. – С. 122.
8. O'z MA, 2-fond, 1- 366-ish, 3-varaq.
9. O'z MA, 2-fond, 1-ro'yxat, 366-ish, 3-varaq.
10. O'z MA, 2-fond, 1-ro'yxat, 366-ish, 6 – 7-varaqlar.
11. O'z MA, 2-fond, 1-ro'yxat, 366-ish, 6 – 7-varaqlar.
12. O'z MA, 2-fond, 1-ro'yxat, 366-ish, 6 – 7-varaqlar.
13. O'z MA, 2-fond, 1-ro'yxat, 366-ish, 6 – 7-varaqlar.
14. O'z MA, 2-fond, 1-ro'yxat, 366-ish, 6 – 7-varaqlar.
15. O'z MA, 2-fond, 1-ro'yxat, 366-ish, 6 – 7-varaqlar.
16. O'z MA, 2-fond, 1-ro'yxat, 366-ish, 2 – 3-varaqlar.
17. Туркестанские ведомости, 1910. – № 115.
18. O'z MA, 3-fond, 2-ro'yxat, 178-ish, 15 – 17-varaqlar.
19. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1968. – С.14.
20. Тухтаметов Т. Г., Русско – Бухарские отношения в конце XIX – начале XX в. Ташкент. – С. 135.
21. O'z MA, R-17-fond, 1-ro'yxat, 87-ish, 60-varaq.
22. Исмоилов Н., Бўриев О., Карши – древний город Узбекистана. – Карши: Насаф, 2006. – С. 48.